

SHE'RIYATDA OLAM VA ODAM MUAMMOLARI

Ilmiy rahbar: To'rayeva Bahor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
professori v.b., filologiya fanlari doktori
Safayeva Mashhurabonu
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
XT2-20A-guruh talabasi

Adabiyot – badiiy nafosat! U odamlarning odatiy ta'bidan ming chandon baland. Chinakam badiiy asar – axloq, ma'rifat, ezgulik mayog'i, bir so'z bilan aytganda, Ilohning payg'omini dillarga yetkazish! Insonning qalbini, ruhiy kechinmalarini adabiyotchilik hech bir fan ifodalay olmaydi. Insoniyat sivilizatsiyasida badiiy adabiyotning o'rni beqiyos bo'lgan. Mazkur fan olam va odam muammolariga hamisha go'zal yechim izlagan. Hayotning o'tkinchi ekani, inson qisqa fursatda mazmunli yashab o'tishi lozimligini ta'kidlagan nozikqalb shoira Edna Milley hisoblanadi. "Huvillama, jim bo'l, qorni och qabrim!" she'ri amerikalik shoira Edna Milley tamonidan yozilgan. Edna Sent Vinsent Millay (1892-yil 22-fevral, Roklend, Meyn – 1950-yil 19-oktabr, Osterlits, Nyu-York) – amerikalik shoir va dramaturg, she'riyat uchun Pulitser mukofotini qo'lga kiritgan. Nyu-Yorkda Millay Grinvich qishlog'ida yashagan va erkin hayot kechirgan. Uning shuhrati tobora oshgan. 1923-yilda uning "Arp-Weaver" to'plami va boshqa she'rlari Pulitser mukofotiga sazovor bo'ldi, birinchi marta she'riyat uchun ayol kishi bu mukofotga sazovor bo'ldi. Millay sonet va ballada ustasi bo'lib, u klassik an'analarga amal qilgan; kun mavzusining aks-sadolari (ayolning jamiyatdagi o'rni va boshqalar) ham ijodida o'z aksini topgan. 1943-yilda, urush paytida Millay she'riyatga qo'shgan ulkan hissasi uchun Robert Frost medalini oldi.

A Dirge Without Music	Huvillama, jim bo'l, qorni och qabrim
<p>The answers quick and keen, the honest look, the laughter, the love, — They are gone. They are gone to feed the roses. Elegant and curled Is the blossom. Fragrant is the blossom. I know. But I do not approve. More precious was the light in your eyes than all the roses in the world. Down, down, down into the darkness of the grave Gently they go, the beautiful, the tender, the kind; Quietly they go, the intelligent, the witty, the brave. I know. But I do not approve. And I am not resigned.</p> <p style="text-align: right;"><i>Edna St. Vincent Millay</i></p>	<p>Huvillama, jim bo'l, qorni och qabrim! Men hali hayotga to'y madim totib. Hozircha go'r chetin kemirib turgin! Chala ishlarimni olay tugatib. Hammasini sen oxir olishing bilib tursam ham, bir og'il tug'ib olarman, Hozircha yashayin, yashayin bir oz - kun kelar, jilmayib turib o'larman. Hozircha ozgina cho'zilsin hayot. O'limning soati biroz kechiksini. Qabrim meni kutib biroz ichiksini, Yonib yashayapman, yonib tugarman, Ochlikdan huvillab yotgan qabrimga bir hovuch suyagim nonday tutarman!</p> <p style="text-align: right;"><i>Karim Baxriyev tarjimasi</i></p>

Bu she'r birinchi marta 1928-yilda nashr etilgan va hozirgacha yozilgan eng hayajonli va mungli lirik she'rlardan biri hisoblanadi. Bu she'r o'lim va yo'qotish

haqida bo'lib, unda yozuvchi o'lim hamma bilan sodir bo'lishini bilsa ham o'limdan voz kechmasligini ta'kidlaydi. She'r hech kimga bag'ishlangan emas, lekin u ma'lum bir shaxs yoki odamlar guruhi haqida yozilgan deb ishoniladi.

Bu she'r 4 banddan iborat. She'r barmoq vaznida o'n birlik turkumda 6+5 shaklida yozilgan. Qofiyasi: abab cdcd efef ghgh.

Ushbu she'rning birinchi misralarida shoira o'quvchilarga barcha insonlar, mutafakkirlar, oshiqlar, shu jumladan, hamma oxir-oqibat yer zulmatiga tushushi va u yerda o'zini ko'rmasligini hali tayyormasligini aytishdan boshlaydi. Barcha zulmatga qabrga tushgan odamlardan ozgina xotiragina qolishini aytadi. Aqlli, dono, mehribon kimki yer yuzida yaxshilik qilgan odamlarning barchasi o'z tanasi, xotiralari va ruhlari bilan zulmatga tushib, atirgullarni oziqlantiradi. Shoiraning o'zi esa hali zulmatga kirishni xohlamasligi va hali tayyormasligi haqida takror va takror aytadi.

Metaforik o'xshatishlar: "*I am not resigned to the shutting away of loving hearts in the hard ground.*" Ushbu satrda loving hearts – yaqin insonlariga qiyoslanyapdi, hard ground - esa qabrga.

Tasviriylik: "*crowned with lilies and with laurel.*" Ushbu tasvirlar visual ta'sir yaratib, she'rning ohangiga hissa qo'shadi.

Takrorlash: "*I am not resigned*" - urg'u berish va ritmik effekt yaratish uchun takrorlashdan qo'llanilgan. Bunday takroriy ibora so'zlovchining o'limning yakuniyligini tan olishdan bosh tortishini kuchaytirib, she'rning markaziy mavzusini ta'kidlaydi. Bu she'rda qayg'u va o'limni qabul qilish mavzulari ko'rib chiqiladi. She'rni o'qiyotib inson qalbining tubida berkinib yotgan kuchli tuyg'ularni uyg'otib ularni jumbushga keltirishi mumkin. She'r o'lmaslikka intilish va hayotning o'zgarmasligini qabul qilish o'rtasidagi o'ziga xos ziddiyatga murojaat qilib, inson borlig'ining murakkabliklarini o'rganadi. She'rda insonlar boqiy yasholmasliklarini bilib, bir kun kelib o'lishlarini, zulmatga g'arq bo'lishlarini bilsalar-da, lekin unga hali tayyormasligini hali bu dunyoda qilolmagan ishlari ko'pligi haqida gap ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Academy of American Poets. [About Edna St. Vincent Millay | Academy of American Poets](https://www.poetryfoundation.org/poets/about-edna-st-vincent-millay). poets.org
 2. [Edna St. Vincent Millay - Vassar College Encyclopedia – Vassar College](https://www.vassar.edu/encyclopedia/entry/edna-st-vincent-millay). www.vassar.edu.
- Poetry Foundation. [Edna St. Vincent Millay](https://www.poetryfoundation.org/poets/about-edna-st-vincent-millay). Poetry Foundation (27 август)